

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI TA'LIMIDA YOZMA NUTQNI TAKOMILLASHTIRISH

Xo'jayeva Munajat Xayrulloevna

8-maktab boshlang'ich ta'lim

Andijon viloyati baliqchi tumani

Annotatsiya: *Mazkur maqolda boshlang'ich sinflarda yozma nutq kompetensiyasini o'stirish tushunchasi, ona tili darslarida nutq o'stirishning kompetensiyasini rivojlantirish, nutq o'stirishda noan'anaviy usullardan foydalanish haqida batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *yozma nutq, kompetensiya, nutq o'stirish, og'zaki nutq, grammatik belgilari.*

KIRISH:

Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko'pgina chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish metodikasi uchun muhim ahamiyat kasb qiladi. Sababi til birliklarining grammatik belgilarini, birikuvini va vazifasini bilishning o'zi mazkur tildagi nutqni egallash uchun yetarli emas. Muhim maqsad tilning grammatik qurilishi yordamida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil qilish ishlari o'quvchi nutqini takomillashtirish va shakllantirishga qaratilishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Nutq ichki va tashqi ko'rinishiga ega. Ichki nutq odamning o'z ichiga gapiradigan passiv nutqi bo'lib, u ikkinchi kishining ishtirokini talab qilmaydi. Shuning uchun bu nutq o'z – o'ziga qaratilgan sanaladi, uni nazorat qilib bo'lmaydi. Ichki nutq og'zaki va yozma nutqning asosi sifatida xizmat qiladi.

Yozma nutqning og'zaki nutqdan yana bir farqi shuki, yozma nutqni ko'ramiz va o'qiymiz. Yozma nutqning muvaffaqiyatli chiqishi uchun yig'ilgan materialni sistemalashtirish, reja tuzish, ishning xomaki nusxasini tayyorlash, matn ustida qayta ishlab rivojlantirish va oqqa ko'chirish lozim. To'g'ri va ifodali gapirish har bir o'qimishli kishi uchun hayotiy zaruriyat bo'lib qolgan bugungi vaqtda o'quvchilarning nutqini o'stirish masalasi o'quv-tarbiya tizimining eng dolzarb muammolaridan biri deb qaralmog'i joiz.

Yozma nutqni takomillashtirish og'zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki u o'quvchilardan grammatik va mazmun tomonidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog'liq. So'zni to'g'ri yozish, tinish belgilarini o'rinli qo'llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon etish o'quvchidan katta mas'uliyatni talab qiladi. Shu bois nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.

NATIJALAR:

Soʻzni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini oʻrinli qoʻllash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish oʻquvchidan katta masʼuliyatni talab etadi. Shu maqsaddan nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi. Yozma nutqning oʻziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. Oʻquvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yoʻl qoʻymaslikka intiladi. Oʻqituvchi shuni ham unutmaslik lozimki, koʻpincha oʻquvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta eʼtibor berib, matnning mazmuni ustida yetarli ish olib bormaydilar.

Matnlarda koʻpincha mavzuga aloqasi boʻlmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikr eʼtibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashgʻulotlarida oʻquvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega boʻlishi, materialning toʻgʻri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda toʻgʻri bayon qilinishiga ham qaratilishi kerak.

MUHOKAMA:

Ona tili darslarida shunday holatni vujudga keltirish joizki oʻquvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni oʻz nutqin shakllantirib borishga ilhomlantiradi. Oʻquvchilar erkin ravishda ijodiy fikrlasalar fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda ogʻzaki, yozma shakllarda toʻgʻri, ravon ifodalay olsalar, ona tili mashgʻulotlari samarali oʻtilgan boʻladi.

Nutqda soʻzlarni takroriy qoʻllash, berilgan soʻzni uning maʼnodoshi va qarama-qarshi maʼnoligi bilan almashtira olmaslik, maʼlum bir sohaga qarashli soʻzlar lugʻatini tuzishda uchraydigan qiyinchiliklar, shubhasiz, oʻquvchilarning soʻz boyligi yetarli emasligidan dalolat beradi.

XULOSA:

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, oʻqituvchi eng dastlab mahoratli, bilimdon boʻlishi kerak. Hozirgi kun talablariga javob berish uchun puxta tayyorgarlik bilan darslarni tashkil qilishi kerak. Ana shunda koʻzlagan maqsadimizga erisha olishimiz muqarrar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva Q. Nutq oʻstirish. – T.: Oʻqituvchi, 2001.
2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.: Sharq, 2000.
3. Muhiddinov A.Gʻ. Oʻquv jarayonida nutq faoliyati. – T.: Oʻqituvchi, 2004.
4. Safarova X. I “Ona tili va adabiyot darslarida ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirishning asosiy omillari”. Dars ishlanmasi.
5. Oʻzbek tilining imlo lugʻati. "Oʻqituvchi" nashriyoti. Toshkent-2001.